




# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

|    |                                                                                                                   |     |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 7  | <b>Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA,</b><br>“Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili       | 400 |
| 8  | <b>Nargiza UMURZAQOVA,</b><br>Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni       | 405 |
| 9  | <b>Nurjahon RAHMONBERDIYEVA,</b><br>Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati | 408 |
| 10 | <b>Mohinabonu RAHMATOVA,</b><br>Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi                      | 412 |
| 11 | <b>Sanobar TURSUNOVA,</b><br>Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar                            | 414 |
| 12 | <b>Lobar AVAZOVA,</b><br>Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi                                     | 417 |
| 13 | <b>Ozoda RAJABBOYEVA,</b><br>“Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi              | 421 |

### 5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

|     |                                                                                                                                               |     |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 1.  | <b>Matluba JABBOROVA,</b><br>O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi                                     | 425 |
| 2.  | <b>G‘ayratbek XOLBUTAYEV,</b><br>Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya                                  | 428 |
| 3.  | <b>Abdukamol ABDUJALILOV,</b><br>Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati                                                                  | 433 |
| 4.  | <b>Ma‘mura RAMATOVA,</b><br>Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish                                             | 437 |
| 5.  | <b>Gulruh RAVSHANOVA,</b><br>Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm                                                    | 441 |
| 6.  | <b>Feruza TURDIMOVA,</b><br>Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi                                       | 445 |
| 7.  | <b>Saodat JO‘RAYEVA,</b><br>Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari                                                  | 448 |
| 8.  | <b>Aziza SAYDULLAYEVA,</b><br>O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini                                          | 451 |
| 9.  | <b>Huriniso XAYRULLAYEVA,</b><br>“Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi               | 454 |
| 10. | <b>Sadoqat KAMOLOVA,</b><br>“Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida) | 456 |
| 11. | <b>Shohzoda TURSUNBOYEVA,</b><br>Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi                                | 459 |
| 12. | <b>Dilafruz MAHKAMOVA,</b><br>“Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri                                              | 463 |
| 13. | <b>Nilufar DEHQONOVA,</b><br>“Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi                            | 468 |

## 5-SHO'BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

### O'ZBEK FOLKLORIDAGI AYOLLAR OBRAZINING MUMTOZ ADABIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI

### TRANSFORMATION OF THE IMAGE OF WOMEN IN UZBEKISTAN FOLKLORE IN CLASSICAL LITERATURE

**Matluba JABBOROVA,**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*

*TOSHDOTAU dotsenti*

*e-mail: [mdjabborova86@mail.ru](mailto:mdjabborova86@mail.ru)*

*10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/WUVR3477*

**Annotation.** *This article analyzes the process of transformation of the image of women in Uzbek folklore into classical literature. The artistic functions of such images as the alpine girl, mother, faithful lover, wise woman, and queen in folklore are examined, and the poetic, symbolic, and philosophical content they acquired in classical literature is highlighted. The research results show that the image of women in oral folk art did not directly migrate to written literature, but rather acquired a new function and meaning as a result of the author's aesthetic ideal, the genre nature of the work, and poetic processing. The process of transformation of the image of women from a clear epic character into a multi-layered poetic image in the transition from folklore to written literature is also shown.*

**Key words:** *Uzbek folklore, image of women, transformation, classical literature, alpine girl, image of mother, faithful lover, princess, poetics.*

O'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot o'rtasidagi uzviy aloqa badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettiradi. Folklor har bir xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari, urf-odatlar, qadriyatlar va orzu-umidlarini mujassamlashtirgan ma'naviy qatlam bo'lib, yozma adabiyotning shakllanishi va taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatgan. Xususan, ayollar obrazi bu jarayonda alohida o'rin tutadi. Chunki xalq og'zaki ijodida ayollar obrazi ko'pincha mardlik, sadoqat, donolik, sabr, onalik, vatanparvarlik va ma'naviy poklik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek folkloridagi ayollar obrazini bir necha tipologik guruhlarga ajratish mumkin: alp qiz yoki jangchi ayol, ona obrazi, vafodor yor, dono ayol, malika yoki hukmdor ayol, sinovchi yoki yo'l ko'rsatuvchi ayol va hkz. Bu qiyofalarning har biri xalqning muayyan ma'naviy idealini ifodalaydi. Masalan, alp qiz timsoli xalqning ayol bilan bog'liq jasur va kurashuvchan tasavvuri natijasida paydo bo'lgan. Chunonchi, "Alpomish"dagi Barchin, "Go'ro'g'li" turkumidagi ayrim ayollar, "Oysuluv", "Orzugul", "Chambil qamali" singari dostonlardagi qahramon ayollar mardlik, qat'iyat va vatanparvarlik timsoli sifatida tasvirlanadi [Mo'minova 1969:45]. Ular shunchaki go'zal qiz yoki kutuvchi yor emas, balki zarur vaziyatda erkaklar bilan teng kurasha oladigan, mustaqil fikrli, erkin qaror qabul qila oladigan obrazlardir.

Xalq og'zaki ijodida ona obrazi ham alohida ma'no kasb etadi. Ona mehr, duo, sabr, himoya va tarbiya timsolidir. U farzandning nafaqat oilaviy, balki ma'naviy tayanchi sifatida ulug'lanadi. Xalq maqollari, dostonlari va rivoyatlarida ona obrazi har doim madh etiladi. Uning fidoyiligi, farzandi uchun o'z umrini baxshida qilishi tasvirlanadi: "Onaning allasi dunyoni tebratar", "Jannat onalar oyog'i ostida", "Ona bilan bola – gul bilan lola" kabi maqollar xalqning ona siymosiga ehtiromi natijasida paydo bo'lgan.

Shuningdek, ayollarning vafodor yor timsoli ham og'zaki ijod namunalarida muhabbat va sadoqatning o'ziga xos ifodasi sifatida tasvirlanadi. U vafodor, sevgisiga sodiq, hijronni yengib, yoriga sadoqat ko'rsata oladigan obraz sifatida gavydalanadi. Mumtoz adabiyotda ko'p uchraydigan

ma'shuqa va yor obrazi aynan shu og'zaki ijoddagi tasvirlardan oziqlangan. Ayollar obrazining dono ayol yoki malika qiyofasi ham folklorda ko'p uchraydi. "Malikayi Husnobod", "To'rabekxonim" kabi ertaklarda malika adolatli, oqila, xalqparvar va tartib o'rnatuvchi ayol sifatida tasvirlanadi [Mo'minova 1969:72]. Bu timsollar yozma adabiyotga o'tganda, falsafiy ma'no kasb etuvchi obrazga aylanadi. Shunday qilib, folklordagi ayollar obrazi xalq tasavvuridagi ideal qarashlarning turli qatlamlarini aks ettiruvchi va yozma adabiyot uchun tayanch manba vazifasini o'tovchi bosqich bo'lgan, deyish mumkin.

Xalq ijodidagi obrazlarning yozma adabiyotga o'tishi alohida kuzatishni talab etadi. Chunki bu ko'chish bir obrazning og'zaki ijoddan yozma adabiyotga oddiy ko'chirish emas, balki badiiy transformatsiyadir. Bu jarayonda obrazga xos o'zgarishlar kuzatiladi:

**1. Funktsional transformatsiya.** Folklorda ayol obrazi ko'pincha voqea harakatining faol ishtirokchisi sifatida harakat qiladi. U kurashadi, maslahat beradi, yorini kutadi, ba'zan dushmanga qarshi kurashadi. Yozma adabiyotda esa bu obrazlar syujet ishtirokchisi bo'lib qolgan holda, ko'proq ramziy, axloqiy, estetik va falsafiy ma'no tashuvchi markazga aylanadi. Masalan, "alp qiz" yozma adabiyotda doim ham jangchi ayol sifatida emas, balki ichki iroda, qat'iyat, sabr va ruhiy kuch timsoli sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Demak, ayol obrazi harakat markazidan ma'no markaziga ko'chadi.

**2. Semantik transformatsiya.** Folklorda obrazning ma'nosi ko'proq aniq namoyon bo'ladi. Yozma adabiyotda esa u ko'p qatlamli semantik bo'yoqdorlikka ega. Masalan, xalq og'zaki ijodidagi yor obrazi yozma adabiyotda ma'shuqa, ilohiy jamol, komillikka yetaklovchi timsol va axloqiy kamolotga yetishish mezonini kabi ma'nolarni qamrab oladi [Komilov 2009:144].

**3. Poetik transformatsiya.** Og'zaki ijodda tasvir ko'proq sodda, epik va voqeband xarakterga ega bo'lsa, yozma adabiyotda u murakkab poetik tizimga kiradi. Ayol obrazi tashbeh, istiora, talmeh, tazod, mubolag'a, ramz va majoz vositasida chuqur poetic yaratilgan yuzaga keltiradi. Natijada obraz real voqelik timsolidan estetik va falsafiy timsol darajasiga ko'tariladi.

**4. Falsafiy transformatsiya.** Xalq ijodida ayol obrazi aynan shu xalqning orzu-ideali bo'lsa, yozma adabiyotda u muallifning badiiy niyatini ifodalovchi timsolga aylanadi. Shu bois mumtoz yozma adabiyotda ayol obrazi ishq, hijron, komillik, san'at, hikmat, adolat, ma'rifat va najot kabi mavzular bilan bog'lanadi.

Xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga ko'chayotgan har bir obraz o'ziga xos tadrijiy bosqichlarni bosib o'tadi. Masalan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Shirin obrazi og'zaki ijoddagi vafodor yor, oqila malika va go'zal ayol timsollarining umumlashgan shaklidir. U oddiy go'zal yor emas, balki jamol, aql, vafod va komillik timsoliga aylanadi [Qayumov 1979:37]. Folklorda go'zal ayol ko'proq sevgining manbasi sifatida ko'rilsa, Navoiy talqinida Shirin Farhod ruhiy kamolotining yuqori bosqichiga aylanadi. Shu tariqa folklordagi vafodor yor obrazi yozma adabiyotda ideal obraz darajasiga ko'tariladi. Yoki og'zaki ijoddagi hijron chekkan, sevgisiga sodiq yor timsoli Navoiy "Layli va Majnun" dostonida yanada yuksak daraja oladi. Layli endi shunchaki muhabbat timsoli emas, balki hijron, ruhiy poklik, sabr va ilohiy ishq manbayiga aylanadi [Haqqulov 2011:96]. Shu bois Layli obrazi og'zaki ijoddagi muhabbat timsolining irfoniylashgan shakli sifatida talqin qilinadi.

"Sab'ai sayyor" dostonidagi Dilorom obrazi esa folklordagi go'zal ayol va malika timsolining estetik-falsafiy shaklidir. Dilorom go'zallik bilan birga kuy, san'at, nafosat va ruhiy orom timsoli sifatida talqin qilinadi. U bilan bog'liq voqealar Bahromdagi jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi [Yusupova 2013:127]. Bu esa xalq og'zaki ijodidagi husn timsolining yozma adabiyotda san'atkor ayol obraziga aylanganini ko'rsatadi. Shuningdek, folklordagi dono ayol, ona va adolat talab qiluvchi kampir timsollari ham yozma adabiyotda Mehinbonu, Mehr, Bonu va Zoli zar kabi obrazlarda chuqurlashadi. Mehinbonu hikmat va maslahat, Mehr nur va ma'rifat, Bonu tarbiya va ruhiy tayanch, Zoli zar esa adolat va insof timsoliga aylanadi. Bu obrazlarda tipik xislatlar saqlangan, lekin ular didaktik, ramziy va falsafiy mazmun bilan boyigan.

O'zbek folkloridagi ayollar timsolining yozma adabiyotdagi transformatsiyasi quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- alp qiz – iroda, sabr va kuch timsoli;
- vafodor yor – ma'shuqa va ruhiy komillik;
- go'zal ayol – jamol va ilohiy tajalli belgisi;
- dono ayol yoki malika – hikmat, maslahat va falsafiy qarashlar timsoli;
- ona – tarbiya, ma'naviy tayanch va ruhiy hotirjamlik ramzi va hkz.

Demak, o'zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan ayol qaysidir ma'noda xalq dostonlari, ertak va naqllardagi ayol timsolidan oziqlangan, tadrijiy takomillashgan. Natijada o'zbek mumtoz adabiyotida ayollar obrazining yangi poetik tizimi yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek folkloridagi ayollar obrazi mumtoz adabiyot taraqqiyotida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Xalq ijodidagi alp qiz, ona, vafodor yor, dono ayol va malika timsollari yozma adabiyotga aynan ko'chib o'tmagan, balki janr tabiati, muallif estetik ideali, maqsadi va poetik qarashlari ta'sirida yangi ma'no va vazifa kasb etgan. Demak mumtoz adabiyot folkloridagi ayollar timsolini poetiklashtirgan, ramziylashtirgan, falsafiylashtirgan va irfoniylashtirgan. Natijada folkloridagi ayol qahramonlar yozma adabiyotda murakkab badiiy-falsafiy obrazlarga aylangan. Bu holat o'zbek adabiy tafakkurining folklore ildizlari asosida yuksak estetik darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Kafolat print company, 2021. – 544 б.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
3. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз кадри. – Тошкент: Адолат, 2004. – 240 б.
4. Мўминова А. Халқ оғзаки ижодида аёллар образи. – Тошкент, 1969. – 96 б.
5. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: Тамаддун, 2012. – 316 б.
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
7. Қаюмов А. Фарҳод ва Ширин сирлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 188 б.
8. Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2011. – 200 б.
9. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 272 б.
10. Jabborova M. Ayollar obrazining xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga ko'chishi. O'zbek adabiyoti va uni o'qitishning dolzarb masalalari, konferensiya to'plami. – Toshkent, 2026. 24-27-b.

